

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 3/1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 3/1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 3/1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3/1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-3/1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухраҳон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Abdullayev Sardorbek

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MEHNAT BOZORI EHTIYOJLARINI PROGNOZLASHNING SOTSIOLOGIK MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....5

2. Пак Полина

ЦИФРОВАЯ СОЦИАЛЬНАЯ АКТИВНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОПЫТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....12

3. Вахидова София

ФАКТОРЫ, ПРЕДСКАЗЫВАЮЩИЕ ПРИВЕРЖЕННОСТЬ ГЕНДЕРНЫМ СТЕРЕОТИПАМ В ОТНОШЕНИИ МУЖЧИН: ОПЫТ МНОЖЕСТВЕННОГО РЕГРЕССИОННОГО АНАЛИЗА.....21

4. Abduvalieva Mumtozxon, Qo'ldosheva Iroda

BOLALAR IJTIMOYIY HIMOYASINING XALQARO STANDARTLARI VA GLOBAL RIVOJLANTIRISH TENDENSIYLARI.....29

5. Bozorova O'lmasxon

DAVLAT BOSHQARUVI MODERNIZASIYASIDA YOSH RAHBARLAR IJTIMOYIY KAPITALINING KONSTRUKTIV XUSUSIYATLARI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....37

6. Adilova Rayxon

IBN SINONING "SIYOSAT"RISOLASIDA "DAVLAT ICHIDAGI DAVLAT" NAZARIYASI.....44

7. Artikbayeva Nazokat

YOSHLARDA INTERNETGA QARAMLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOYIY MUNOSABATLARGA TA'SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....52

8. Arifxodjayeva Luiza

YOSH RAHBARLARDA O'ZGARISHLARNI BOSHQARISH KOMPETENSIYASINI BAHOLASH TIZIMI VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.....58

9. Махмудова Малика

ЛАТЕНТНАЯ «ВИНОВНОСТЬ ЖЕРТВЫ» КАК БАРЬЕР ДОСТУПА ЖЕНЩИН К ПРАВОСУДИЮ ПО ДЕЛАМ О СЕМЕЙНОМ НАСИЛИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....65

10. Тилепова Гулайым

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ СОЦИАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ ЭТНОКУЛЬТУРНОЙ ИНТЕГРАЦИЕЙ.....76

11. Bekchanova Sevinch

NOGIRONLIGI BOR BOLALAR OTA-ONALARINING INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA ISHTIROKI: "SHAXSIY JASORAT"DAN INSTITUTSIONAL SHERIKLIKKA (TOSHKENT SHAHRI SERGELI TUMANI MISOLIDA).....90

12. Abdullayev Sardorbek

PROFESSIONAL TA'LIM BITIRUVCHILARINING MEHNAT BOZORIGA INSTITUTSIONAL MOSLASHUVINI BAHOLASHNING SOTSIOLOGIK MEZONLARI.....97

13. Azizov S.

MARKAZIY OSIYO VA YAPONIYA XALQLARI O'RTASIDAGI ILK MADANIY-SIVILIZATSIYAVIY ALOQALAR: TARIXIY-METODOLOGIK TAHLIL.....105

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Azizov S.,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

MARKAZIY OSIYO VA YAPONIYA XALQLARI O'RTASIDAGI ILK MADANIY-SIVILIZATSIYAVIY ALOQALAR: TARIXIY-METODOLOGIK TAHLIL

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21498702>

ANNOTATSIYA

Maqolada Markaziy Osiyo va Yaponiya xalqlari o'rtasidagi ilk madaniy-sivilizatsiyaviy aloqalarning tarixiy ildizlari hamda ularni o'rganishning metodologik asoslari tahlil qilinadi. Muallif madaniy diffuziya, transmintaqaviy kommunikatsiyalar va bilvosita sivilizatsiyaviy almashinuv konsepsiyalariga tayangan holda Buyuk ipak yo'li tizimida Markaziy Osiyoning tutgan o'rni, so'g'd savdogarlarining vositachilik faoliyati, buddaviylikning mintqa orqali Yaponiyaga kirib borishi hamda Nara davrida Syosoin xazinasida saqlanib qolgan Markaziy Osiyo san'ati namunalari masalalarini yoritadi. Shuningdek, yapon sharqshunosligida Markaziy Osiyo tadqiqotlarining shakllanishi, xususan, Otani ekspeditsiyalari merosi ko'rib chiqiladi. Ilk aloqalar tarixi zamonaviy O'zbekiston–Yaponiya munosabatlarining sivilizatsiyaviy zamini sifatida baholanib, mavzuni yanada chuqur o'rganish istiqbollari belgilab beriladi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Yaponiya, Buyuk ipak yo'li, madaniy diffuziya, so'g'd savdogarlari, buddaviylik, Nara davri, Syosoin, sivilizatsiyaviy aloqalar, transmintaqaviy kommunikatsiya, tarixshunoslik, metodologiya.

Азизов С.,

Ташкентский государственный университет востоковедения

РАННИЕ КУЛЬТУРНО-ЦИВИЛИЗАЦИОННЫЕ КОНТАКТЫ НАРОДОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЯПОНИИ: ИСТОРИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются исторические корни ранних культурно-цивилизационных контактов народов Центральной Азии и Японии, а также методологические основы их изучения. Опираясь на концепции культурной диффузии, трансрегиональных коммуникаций и опосредованного цивилизационного обмена, автор рассматривает место Центральной Азии в системе Великого шёлкового пути, посредническую деятельность согдийских купцов, распространение буддизма через регион в Японию, а также образцы центральноазиатского искусства, сохранившиеся в сокровищнице Сёсоин периода Нара. Отдельное внимание уделено формированию центральноазиатских исследований в японском востоковедении, в частности наследию экспедиций Отани. Ранние контакты оцениваются как цивилизационный фундамент современных узбекско-японских отношений, определяются перспективы дальнейшего изучения темы.

Ключевые слова: Центральная Азия, Япония, Великий шёлковый путь, культурная диффузия, согдийские купцы, буддизм, период Нара, Сёсоин, цивилизационные контакты, трансрегиональная коммуникация, историография, методология.

Azizov S.,

Tashkent State University of Oriental Studies

EARLY CULTURAL AND CIVILIZATIONAL CONTACTS BETWEEN THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA AND JAPAN: A HISTORICAL AND METHODOLOGICAL ANALYSIS

ABSTRACT

The article analyses the historical roots of early cultural and civilizational contacts between the peoples of Central Asia and Japan, as well as the methodological foundations of their study. Drawing on the concepts of cultural diffusion, transregional communications and mediated civilizational exchange, the author examines the place of Central Asia in the Great Silk Road system, the intermediary activity of Sogdian merchants, the spread of Buddhism through the region to Japan, and the artefacts of Central Asian art preserved in the Shōsōin repository of the Nara period. Particular attention is paid to the formation of Central Asian studies in Japanese oriental scholarship, including the legacy of the Ōtani expeditions. Early contacts are assessed as the civilizational foundation of contemporary Uzbek–Japanese relations, and prospects for further research are outlined.

Key words: Central Asia, Japan, Great Silk Road, cultural diffusion, Sogdian merchants, Buddhism, Nara period, Shōsōin, civilizational contacts, transregional communication, historiography, methodology.

KIRISH

1991-yilda davlat mustaqilligiga erishgach, O‘zbekiston Respublikasi ko‘p vektorli tashqi siyosat doirasida Osiyo – Tinch okeani mintaqasining yetakchi davlatlari, jumladan, Yaponiya bilan munosabatlarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratdi. O‘tgan davr mobaynida ikki tomonlama hamkorlik izchil rivojlanib, strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi. 2025-yil dekabrda bo‘lib o‘tgan birinchi “Markaziy Osiyo + Yaponiya” sammitida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar mintqa davlatlari va Yaponiya o‘rtasidagi sherikchilikning sifat jihatidan yangi bosqichini boshlab berdi [1].

Zamonaviy davlatlararo munosabatlar hech qachon bo‘sh joyda vujudga kelmaydi: ular muayyan tarixiy, madaniy va sivilizatsiyaviy zaminga tayanadi. Shu bois O‘zbekiston – Yaponiya munosabatlarning chuqur ildizlarini ilmiy jihatdan o‘rganish ikki xalq o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va madaniy yaqinlikning tarixiy asoslarini ochib berish imkonini yaratadi. Bu, o‘z navbatida, hozirgi gumanitar va madaniy hamkorlikning mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Markaziy Osiyo va Yaponiya xalqlari o‘rtasidagi ilk aloqalarni tadqiq etish murakkab ilmiy vazifa hisoblanadi. Qadimgi davr va o‘rta asrlarning katta qismida ikki mintqa o‘rtasida bevosita va barqaror siyosiy yoxud savdo aloqalari mavjud bo‘lmagan. Binobarin, an’anaviy diplomatik tarix doirasidagi yondashuv, ya’ni faqat rasmiy davlatlararo aloqalarni o‘rganish ushbu mavzuga nisbatan yetarli emas. Tadqiqot davlatlararo munosabatlarning an’anaviy talqiniga emas, balki madaniy diffuziya, transmintaqaviy kommunikatsiyalar va bilvosita sivilizatsiyaviy almashinuv konsepsiyalariga asoslanishi lozim.

Ushbu maqolaning maqsadi – Markaziy Osiyo va Yaponiya xalqlari o‘rtasidagi ilk madaniy-sivilizatsiyaviy aloqalarning mazmuni, kanallari va tarixiy ahamiyatini kompleks tahlil etishdan iborat. Maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi: mavzuni o‘rganishning metodologik asoslarini aniqlash; Buyuk ipak yo‘li tizimida Markaziy Osiyoning vositachilik va shakllantiruvchi rolini ochib berish; buddaviylikning mintqa orqali Yaponiyaga kirib borish jarayonini tahlil qilish; yapon ilm-fanida Markaziy Osiyo tadqiqotlarining genezisini ko‘rsatish hamda ilk aloqalarning zamonaviy ikki tomonlama munosabatlar uchun ahamiyatini baholash.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi haqida gapirganda, uning ayrim jihatlari xorijiy tarixshunoslikda ancha chuqur tadqiq etilganini qayd etish lozim. Buyuk ipak yo'li tarixi V. Xansen, S. Uitfild va S. Lyu asarlarida, yo'l bo'ylab dinlarning tarqalishi R. Folts tadqiqotlarida, Markaziy Osiyo va Xitoy buddaviy san'ati M. Ri fundamental asarlarida yoritilgan. Yapon fanida ushbu yo'nalish Kato Kyudzo va Komatsu Xisao kabi olimlar nomi bilan bog'liq. Rus tarixshunosligida Otani ekspeditsiyalari merosi maxsus o'rganilgan. O'zbek tarixshunosligida esa mavzu, asosan, diplomatiya tarixiga oid umumlashtiruvchi nashrlar doirasida qaralgan [2].

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda Markaziy Osiyo–Yaponiya yo'nalishidagi ilk aloqalar, qoida tariqasida, kengroq mavzular tarkibida epizodik tarzda tilga olinadi. Ularni yaxlit tizim sifatida, zamonaviy metodologik konsepsiyalar asosida maxsus tahlil etish hali yetarlicha amalga oshirilmagan. Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, ilk aloqalar tarixi ilk bor O'zbekiston–Yaponiya munosabatlarining sivilizatsiyaviy genezisi nuqtai nazaridan yaxlit tahlil etiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosini, avvalo, tizimli-tarixiy yondashuv tashkil etadi. Ushbu yondashuv doirasida madaniy-sivilizatsiyaviy aloqalar alohida olingan hodisa sifatida emas, balki Yevroosiyo makonida kechgan keng qamrovli iqtisodiy, diniy va madaniy jarayonlarning uzviy qismi sifatida qaraladi. Tizimli tahlil ikki tomonlama aloqalarni mintaqaviy va global kontekst bilan bog'liq holda o'rganish, turli omillar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni aniqlash imkonini beradi [3].

Ikkinchi muhim metodologik asos – madaniy diffuziya konsepsiyasidir. Zamonaviy tarix fani madaniy ta'sirlar murakkab vositachilar tarmog'i orqali katta masofalarga tarqalishi mumkinligidan, bunda almashinuvning yakuniy ishtirokchilari o'rtasida bevosita aloqa talab etilmasligidan kelib chiqadi. Shu nuqtai nazardan, Markaziy Osiyo va Yaponiya o'rtasidagi aloqalarni madaniy, diniy va texnologik unsurlarning Xitoy, Koreya hamda Sharqiy Osiyoning boshqa mintaqalari orqali ko'p bosqichli uzatilish jarayoni sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotda, shuningdek, qiyosiy-tarixiy va tarixiy-genetik metodlardan foydalanildi. Qiyosiy-tarixiy metod turli mintaqalardagi badiiy va diniy an'analarning o'xshashlik hamda farqlarini aniqlash, tarixiy-genetik metod esa madaniy hodisalarning kelib chiqishi va evolyutsiyasini kuzatish imkonini berdi. Mavzuning o'ziga xosligi fanlararo yondashuvni – tarix, arxeologiya, san'atshunoslik, dinshunoslik va filologiya yutuqlarini uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Tadqiqotning manbaviy bazasini arxeologik materiallar, jumladan, Nara shahridagi Syosoin imperator xazinasida saqlanayotgan buyumlar to'g'risidagi ma'lumotlar, "Nixon syoki" kabi yapon yozma yodgorliklari [4], shuningdek, xorijiy va mahalliy tarixshunoslikning fundamental asarlari tashkil etadi. Ushbu manbalarni kompleks tahlil qilish ilk aloqalar tarixini xolis va ilmiy asosda qayta tiklash imkonini beradi.

Tadqiqot davomida tarixiylik va xolislik tamoyillariga qat'iy amal qilindi. Tarixiylik tamoyili har bir hodisani o'z davri sharoitida, sabab-oqibat aloqadorligida baholashni talab etsa, xolislik tamoyili manbalarga tanqidiy yondashuv hamda asossiz umumlashmalardan saqlanishni taqozo etadi. Qadimgi aloqalar mavzusida, ayniqsa, o'tmishni zamonaviylashtirish, ya'ni bugungi davlatlararo munosabatlar mantig'ini qadimgi davrga ko'chirish xavfi mavjud. Shu bois maqolada «aloqalar» tushunchasi keng ma'noda – madaniy unsurlarning harakati sifatida qo'llanadi va u qadimgi davrga nisbatan rasmiy davlatlararo munosabatlar mavjudligini anglatmaydi.

Manbalarga tanqidiy munosabat mavzuning yana bir muhim metodologik jihatidir. Ilk davr aloqalariga oid yozma manbalar uzuq-yuluq bo'lib, ular ko'pincha voqealarni bilvosita aks ettiradi. Shu sababli moddiy madaniyat yodgorliklari – arxeologik topilmalar, san'at asarlari, epigrafik materiallar – tadqiqotda alohida ahamiyat kasb etadi. Yozma va moddiy manbalarni o'zaro solishtirish, ularning ma'lumotlarini fanlararo usullar yordamida tekshirish xulosalarning ishonchliligini ta'minlovchi asosiy vosita bo'lib xizmat qildi.

ASOSIY QISM

Yevroosiyo ko'p asrlar davomida quruqlik va dengiz savdo yo'llari tarmog'i bilan birlashtirilgan yagona kommunikatsiya makonini tashkil etgan. Ushbu tizim doirasida alohida sivilizatsiyalar bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'lmagan, balki g'oyalar, tovarlar va madaniy

amaliyotlar almashinuvining uzluksiz jarayonida ishtirok etgan. Bu tizimning eng muhim unsuri O'rta yer dengizi havzasi, Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo, Xitoy va Sharqiy Osiyoni sivilizatsiyalararo o'zaro ta'sirning yagona tarmog'iga bog'lagan Buyuk ipak yo'li edi [5].

Markaziy Osiyo bu tizimda alohida mavqega ega bo'lgan. Asosiy savdo yo'llarining chorrahasida joylashgan mintaqa nafaqat tranzit makon, balki iqtisodiy, madaniy va intellektual faollikning mustaqil markazi sifatida ham maydonga chiqqan. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Kesh va mintaqaning boshqa shaharlari xalqaro savdo hamda madaniy almashinuvning eng muhim tugunlari hisoblangan. Ular orqali g'arbiy va sharqiy yo'nalishlarda tarqalgan tovarlar, texnologiyalar, badiiy uslublar va diniy ta'limotlar oqimi o'tgan [6].

Ushbu jarayonlarda so'g'd savdogarlari eng muhim vositachi bo'lib xizmat qilgan. VI–VIII asrlarda so'g'dlar Markaziy Osiyodan Xitoygacha cho'zilgan keng tarmoqli savdo manzilgohlari tizimini shakllantirdilar. Ularning faoliyati sof iqtisodiy almashinuv doirasidan ancha chetga chiqqan: tovarlar bilan birga ular til amaliyotlari, badiiy an'analar, diniy g'oyalar va moddiy madaniyat unsurlarini ham tarqatganlar. Ko'plab tadqiqotchilar so'g'dlarni ilk o'rta asrlar Yevroosiyoosining eng nufuzli transmintaqaviy jamoalaridan biri sifatida baholaydilar [7]. So'g'd tili va yozuvining Yuqori Hind vodiysidan Sharqiy Turkistongacha bo'lgan ulkan hududda qayd etilgani ularning kommunikatsion tarmog'i ko'lamidan dalolat beradi [8].

Mintaqaning sivilizatsiyaviy salohiyati, ayniqsa, Kushon davlati davrida to'liq namoyon bo'ldi. Aynan shu davrda buddaviylik hozirgi O'zbekiston janubi hududlarida institutsional shakl kasb etdi: Termiz atrofidagi Qoratepa va Fayoztepa ibodatxona majmualari, Ayritom yodgorligi va Toxaristonning boshqa buddaviy markazlari mintaqada rivojlangan diniy-badiiy an'ana mavjud bo'lganidan dalolat beradi [9]. Ushbu markazlarda yaratilgan me'moriy va tasviriy yechimlar keyinchalik buddaviylik bilan birga sharqqa – Xitoy, Koreya va Yaponiyaga qarab harakatlangan madaniy oqimning boshlang'ich nuqtalaridan biri bo'ldi.

Buyuk ipak yo'li orqali faqat tovarlar emas, balki texnologiyalar, bilimlar va badiiy uslublar ham harakatlangan. Ipak, shisha buyumlar, qimmatbaho toshlar, ziravorlar bilan bir qatorda musiqa asboblari, raqs an'analari, o'yin turlari va bezak naqshlari ham mintaqadan mintaqaga o'tgan. Tan davri Xitoy saroy madaniyatida markaziy-osiyo musiqasi va raqsining keng tarqalgani ma'lum; ushbu madaniy qatlam keyinchalik Xitoy bilan aloqada bo'lgan Yaponiya saroy an'analari ham o'z ta'sirini o'tkazgan [10]. Shu tariqa, Yaponiyaga yetib borgan ko'plab madaniy hodisalarning genealogiyasi bilvosita Markaziy Osiyoga borib taqaladi.

So'g'd savdogarlarining faoliyat geografiyasi hozirgi tadqiqotlarda yetarlicha aniq tiklangan. Dunxuan, Chanan va Xitoyning boshqa yirik shaharlarida so'g'd savdo koloniyalari faoliyat yuritgan, so'g'd tili esa Ipak yo'lining sharqiy qismida xalqaro muomala vositasi vazifasini bajargan [11]. So'g'dlar Tan davri Xitoyining kosmopolit madaniy muhitini shakllantirishda faol qatnashganlar. Yaponiya aynan shu muhit bilan muntazam aloqada bo'lgani bois, so'g'd madaniy merosi unsurlari yapon zaminiga Xitoy "filtra" orqali kirib borgan, deb xulosa qilish mumkin [12].

So'g'dlarning Yapon orollari bilan bevosita aloqalari yozma manbalarda tasdiqlanmagan bo'lsa-da, ularning faoliyati natijalari Xitoy va Koreya vositachilik markazlari orqali bilvosita Yaponiyaga yetib borgan [13]. Bu ta'sir, ayniqsa, Yaponiya materik Sharqining madaniy yutuqlarini faol o'zlashtirgan Nara davrida (710–794-yillar) yaqqol namoyon bo'ldi. Nara shahridagi mashhur Syosoin imperator xazinasidagi arxeologik topilmalar Markaziy Osiyo va Eron badiiy an'analari ta'sirida yaratilgan buyumlar mavjudligidan guvohlik beradi. Ular orasida so'g'd va kengroq ma'nodagi markaziy-osiyo san'atiga xos naqsh va uslublar kuzatiladigan matolar, musiqa asboblari, shisha va metall buyumlar, bezak unsurlari alohida ajralib turadi [14].

Syosoin xazinasini VIII asrda imperator Syomu buyumlari asosida shakllangan bo'lib, u haqli ravishda "Ipak yo'lining sharqiy nuqtasi", deb ataladi. Xazinada saqlanayotgan sadaf qadama bezakli torli cholg'ular, sosoniy uslubidagi qirrali shisha idishlar, marvarid halqali medalyon naqshli ipak matolar bevosita G'arbiy va Markaziy Osiyo badiiy an'analari bilan bog'lanadi [15]. Mazkur naqsh turlari, jumladan, so'g'd ipakchiligiga xos medalyonli kompozitsiyalar Markaziy Osiyo hunarmandchilik markazlarida keng qo'llangan. Bu esa mintaqada badiiy tili unsurlarining Yaponiyagacha yetib borganini ashyoviy jihatdan tasdiqlaydi.

Madaniy uzatish mexanizmi VII-IX asrlarda institutsional shakl kasb etdi: Yaponiya Tan imperiyasiga muntazam ravishda rasmiy elchiliklar yuborib turdi. Ushbu missiyalar tarkibidagi rohiblar, olimlar va hunarmandlar materik madaniyatining eng yangi yutuqlarini – diniy matnlar, san'at asarlari, texnologiyalar va boshqaruv tajribasini – Yaponiyaga olib kelganlar [16]. Tan poytaxti Chanan o'sha davrda so'g'dlar ham faol ishtirok etgan kosmopolit markaz bo'lgani bois, yapon elchiliklari o'zlashtirgan madaniy majmua tarkibida markaziy-osiyo unsurlari ham tabiiy ravishda mavjud edi.

Buddaviylikning Yaponiyaga rasman kirib kelishida Koreya yarim oroli davlatlari, avvalo Pekche alohida rol o'ynagan. "Nixon syoki" ma'lumotlariga ko'ra, VI asr o'rtalarida Pekche hukmdori yapon saroyiga budda haykali va muqaddas matnlarni yuborgan, bu esa yangi ta'limotning davlat darajasida qabul qilinishiga yo'l ochgan [17]. Shu tariqa uzatish zanjiri to'liq shakllandi "Hindiston – Markaziy Osiyo – Xitoy – Koreya – Yaponiya". Ushbu zanjirning har bir bo'g'inida ta'limot va u bilan bog'liq badiiy an'ana mahalliy talqinlar bilan boyib borgan.

Markaziy Osiyo va Yaponiya o'rtasidagi madaniy aloqalar tarixida buddaviylikning tarqalishi alohida o'rin tutadi. Hindistonda vujudga kelgan buddaviylik Baqtriya, Toxariston va So'g'd hududlari orqali asta-sekin Xitoyga, so'ngra Koreya va Yaponiyaga yoyildi. Bu jarayonda Markaziy Osiyo nafaqat tranzit hudud, balki buddaviy madaniyatning muhim shakllantiruvchi markazi sifatida ham xizmat qildi. Aynan shu yerda diniy matnlar yangi til va madaniy sharoitlarga moslashtirildi, badiiy maktablar rivojlandi, monastir majmualari bunyod etildi va buddaviy san'at an'analari shakllandi [18].

Hind, eron va ellin madaniy an'alarining o'zaro uyg'unlashuvi kechgan Toxariston va Baqtriya buddaviy markazlari alohida rol o'ynagan. Keyinchalik Xitoy va Yaponiyada keng tarqalgan buddaviy ikonografiyaning ko'plab unsurlari aynan markaziy-osiyo muhitida shakllangan. Buddaviy matnlarning xitoycha tarjimalari va missionerlar faoliyati orqali buddaviylikning markaziy-osiyocho talqinlariga oid ayrim jihatlar yapon diniy an'anasining tarkibiy qismiga aylandi [19]. Bu holat Markaziy Osiyoning yapon madaniyatiga ta'siri bevosita emas, balki ko'p bosqichli vositachilik zanjiri orqali ro'y berganligini isbotlaydi.

Yapon yozma manbalari ham mazkur jarayonlarni bilvosita aks ettiradi. «Nixon syoki» yilnomasida buddaviylikning Yaponiyaga kirib kelishi, materik davlatlari bilan aloqalar va yangi diniy ta'limotning qabul qilinishi bilan bog'liq voqealar bayon etilgan [20]. Asuka va Nara davrlarida shakllangan yapon buddaviyligi, jumladan, shahzoda Syotoku faoliyati bilan bog'liq diniy-siyosiy jarayonlar materik an'alarining chuqur o'zlashtirilganidan dalolat beradi [21]. Ushbu an'alar tarkibida esa markaziy-osiyo unsurlari ham mavjud edi.

Shunday qilib, ilk aloqalar tahlili quyidagi muhim xulosaga olib keladi: Markaziy Osiyo va Yaponiya o'rtasidagi madaniy almashinuv bevosita davlatlararo munosabatlar shaklida emas, balki Yevroosiyo kommunikatsiya tizimining tabiiy faoliyati doirasida, ko'p bosqichli vositachilik mexanizmlari orqali amalga oshgan. Bunday model madaniy diffuziya konsepsiyasi bilan to'liq izohlanadi va ikki mintaqada o'rtasidagi sivilizatsiyaviy bog'liqlikning obyektiv tarixiy asoslarini ochib beradi.

So'g'd tarmog'ining ko'lami haqida yozma yodgorliklar ham guvohlik beradi. Yuqori Hind vodiysida topilgan so'g'd bitiklari, Dunxuan yaqinidan chiqqan «qadimgi xatlar» va boshqa epigrafik materiallar so'g'd savdogarlarining Yevroosiyo bo'ylab muntazam yozishmalar olib borgan, uzoq masofali savdoni tashkil eta olgan rivojlangan jamoa bo'lganini ko'rsatadi [22]. Ana shunday kommunikatsion infratuzilma mavjudligi madaniy unsurlarning uzoq sharqiy nuqtalarga, pirovardida Yaponiyagacha yetib borishining moddiy shart-sharoitini yaratgan edi.

Texnologiyalar almashinuvi ham xuddi shu yo'nalishlarda kechgan. Qog'oz ishlab chiqarish, shishasozlik, to'qimachilik va metallga ishlov berish sohasidagi bilimlar Ipak yo'li bo'ylab harakatlanib, Sharqiy Osiyo mamlakatlarining moddiy madaniyatini boyitgan [23]. Yaponiya materik texnologiyalarini, asosan, Xitoy va Koreya orqali qabul qilgan bo'lsa-da, ushbu texnologik majmuaning shakllanishida Markaziy Osiyo hunarmandchilik markazlarining hissasi bor edi. Shu tariqa moddiy madaniyat sohasida ham ko'p bosqichli uzatish modeli amal qilgan.

Islom dini mintaqada qaror topgach, Markaziy Osiyoning sivilizatsiyaviy yoʻnalishi jiddiy oʻzgardi va buddaviy davrga xos madaniy oqimlar susaydi. Biroq bu davrda ham Yevroosiyo savdo tizimi faoliyatini davom ettirdi, Sharq bilan bilvosita aloqalar esa dengiz yoʻllari orqali saqlanib qoldi [24]. Muhimi shundaki, avvalgi asrlarda Yaponiyaga yetib borgan madaniy meros u yerda mustahkam oʻzlashtirilib, yapon anʼanasining uzviy qismiga aylangan edi. Shu maʼnoda, aloqalarning bevosita davom etmagani ularning tarixiy natijalarini bekor qilmaydi.

Qiyosiy nuqtai nazardan yana bir jihat eʼtiborga molik: Markaziy Osiyo va Yaponiya Buyuk ipak yoʻli tizimida tipologik jihatdan oʻxshash vazifalarni bajargan. Har ikki mintaqqa ham oʻzga sivilizatsiyalar yutuqlarini qabul qilib, ularni ijodiy qayta ishlagan va oʻziga xos sintez yaratgan “qabul qiluvchi-oʻzgartiruvchi” madaniyatlar sirasiga kiradi [25]. Ushbu tipologik yaqinlik ikki xalq mentalitetida anʼanaga hurmat, bilimga intilish va madaniy merosni asrash kabi qadriyatlarning mushtarakligini qisman izohlaydi.

Buddaviy tasviriy sanʼat evolyutsiyasi mazkur jarayonni yaqqol koʻrsatadi. Gandxara va Baqtriya ustaxonalarida shakllangan Buddha tasvirining asosiy ikonografik belgilari – kiyim burmalarining talqini, nur gardishi, holat va imo-ishoralar tizimi – Sharqiy Turkiston gʻor ibodatxonalari orqali Xitoy monumental sanʼatiga, undan esa Asuka va Nara davri yapon ibodatxona haykaltaroshligiga oʻtgan [26]. Sanʼatshunoslik tahlillari yapon buddaviy plastikasining ilk namunalari materik prototiplariga yaqinlik saqlanganini koʻrsatadi. Demak, yapon diniy sanʼatining genetik ildizlari qatorida markaziy-osiyo badiiy maktablari ham turadi.

Mavzuning yana bir muhim jihati – yapon ilm-fanida Markaziy Osiyoga boʻlgan qiziqishning shakllanishidir. XX asr boshlarida graf Otani Kodzui tashabbusi bilan Sharqiy Turkistonga uyushtirilgan ekspeditsiyalar yapon sharqshunosligida markaziy-osiyo shunoslik yoʻnalishining vujudga kelishida muhim bosqich boʻldi. Ekspeditsiyalar davomida toʻplangan qoʻlyozmalar, buddaviy sanʼat namunalari va arxeologik materiallar – “Otani kolleksiyasi” – hozirga qadar Markaziy Osiyo buddaviy merosini oʻrganishning eng muhim manbalaridan biri boʻlib qolmoqda [27].

Otani ekspeditsiyalari 1902-1914-yillar oraligʻida uch bosqichda amalga oshirilgan boʻlib, ular Yevropa davlatlarining mashhur Turkiston ekspeditsiyalari bilan bir davrda oʻtkazildi. Yapon tadqiqotchilari Sharqiy Turkistonning buddaviy yodgorliklarini oʻrganib, qoʻlyozmalar, devoriy suratlar parchalari va sanʼat buyumlaridan iborat yirik kolleksiya toʻpladilar. Keyinchalik turli muzey va fondlarga tarqalib ketgan ushbu kolleksiya bugungi kunda ham xalqaro buddologiya va turkistonshunoslikning muhim manbaviy bazasi hisoblanadi [28].

Eʼtiborlisi, yapon ekspeditsiyalarining tashabbuskori Otani Kodzui yirik buddaviy maktab rahnamosi edi. Uning uchun Markaziy Osiyo tadqiqotlari sof akademik qiziqishdan tashqari, yapon buddaviyligining tarixiy ildizlarini izlash maʼnosini ham anglatardi. Ushbu holat yuqorida bayon etilgan tezisni yana bir bor tasdiqlaydi: yapon madaniy oʻzligini anglash jarayoni tabiiy ravishda Markaziy Osiyo merosiga murojaatni taqozo etgan. Shu maʼnoda, XX asr boshidagi ilmiy ekspeditsiyalarni qadimgi sivilizatsiyaviy aloqalarning oʻziga xos “qayta kashf etilishi”, deb baholash mumkin [29].

XX asr yapon tarixshunosligida Markaziy Osiyo tadqiqotlari izchil rivojlandi. Taniqli olim Kato Kyudzo oʻz asarlarida Markaziy Osiyo buddaviyligi va arxeologik yodgorliklarini yapon ilmiy jamoatchiligiga keng tanishtirdi hamda mintaqada olib borilgan qazishma ishlarida bevosita ishtirok etdi [30]. Komatsu Xisao esa yapon markaziy-osiyo shunosligining shakllanish bosqichlari va ilmiy maktablarini umumlashtirib tahlil etdi [31]. Ushbu ilmiy anʼana Yaponiyada Markaziy Osiyoga nisbatan barqaror akademik qiziqish mavjudligini koʻrsatadi.

Taʼkidlash joizki, yapon olimlarining Markaziy Osiyo buddaviy merosiga boʻlgan eʼtibori tasodifiy emas: yapon madaniyatining diniy-badiiy asoslarini oʻrganish tadqiqotchilarni muqarrar ravishda ushbu asoslar shakllangan manbalar – Xitoy, Koreya va ular orqali Markaziy Osiyo tomon yetaklaydi. Shu maʼnoda, ilk madaniy aloqalar tarixi ikki xalq oʻrtasidagi oʻziga xos sivilizatsiyaviy xotira vazifasini bajaradi va zamonaviy ilmiy-gumanitar hamkorlik uchun tabiiy mazmuniy asos yaratadi [32].

Kato Kyudzo faoliyati bu boradagi eng yorqin misollardan biridir. Olim ko'p yillar davomida O'zbekiston hududidagi, jumladan, Surxondaryo vohasidagi buddaviy yodgorliklarni o'rganish ishlarida ishtirok etib, Markaziy Osiyo arxeologiyasi yutuqlarini yapon kitobxoniga muntazam yetkazib bordi [33]. Uning ilmiy-ma'rifiy faoliyati XX asrning ikkinchi yarmida ikki xalq o'rtasidagi intellektual muloqotning uzilmasligini ta'minlagan omillardan biri bo'ldi. Bunday shaxsiy ilmiy tashabbuslar rasmiy davlatlararo munosabatlar bo'lmagan sharoitda ham madaniy ko'priklar vazifasini o'tay olishini ko'rsatadi.

Ilk aloqalarning zamonaviy ahamiyati yana shundaki, ular O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi hozirgi munosabatlarning ramziy-madaniy tilini boyitadi. Ikki davlat rasmiy uchrashuvlari va gumanitar loyihalarida Buyuk ipak yo'li, buddaviy meros va qadimiy madaniy bog'liqlik mavzulariga muntazam murojaat qilinishi tarixiy xotiraning amaliy diplomatiyadagi rolini yaqqol namoyish etadi. Sivilizatsiyaviy zamin, shu tariqa, faqat o'tmish hodisasi emas, balki ikki tomonlama munosabatlarning bugungi kunida ham faol ishlayotgan resurs hisoblanadi [34].

Nihoyat, sivilizatsiyaviy xotiraning zamonaviy siyosiy tafakkurga ta'sirini alohida qayd etish lozim. Yaponiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosiy konsepsiyalarida "Ipak yo'li diplomatiyasi" obrazi muhim o'rin tutadi: mintaqa yapon rasmiy hujjatlari va nutqlarida "tinchlik va barqarorlik yo'lagi" sifatida ta'riflanadi [35]. Bunday ritorika tasodifiy emas – u aynan ushbu maqolada tahlil etilgan ko'p asrlik tarixiy-madaniy bog'liqlik tasavvuriga tayanadi. Demak, ilk aloqalar tarixi bugungi kunda ham ikki tomonlama munosabatlarning konseptual asoslaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

XULOSA

O'tkazilgan tahlil quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Birinchidan, Markaziy Osiyo va Yaponiya xalqlari o'rtasidagi ilk aloqalar bevosita emas, balki bilvosita, ko'p bosqichli xarakterga ega bo'lib, Xitoy va Koreya vositachiligida amalga oshgan. Ushbu holat mavzuni o'rganishda an'anaviy diplomatik tarix metodlaridan voz kechib, madaniy diffuziya va transmintaqaviy kommunikatsiyalar konsepsiyalariga tayanishni taqozo etadi.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo Buyuk ipak yo'li tizimida shunchaki tranzit hudud emas, balki madaniy mazmunni shakllantiruvchi faol subyekt bo'lgan. So'g'd savdogarlarining transmintaqaviy faoliyati, mintaqa shaharlarining savdo-madaniy tugun sifatidagi roli hamda buddaviy san'at maktablarining rivoji buning yorqin dalilidir.

Uchinchidan, buddaviylikning tarqalishi Markaziy Osiyo va Yaponiya o'rtasidagi eng muhim sivilizatsiyaviy kanal bo'lib xizmat qilgan. Yapon diniy-badiiy an'anasida markaziy-osiyo talqinlarining izlari saqlanib qolgani, Syosoin xazinasidagi ashyoviy dalillar bilan birgalikda, ikki mintaqa o'rtasidagi tarixiy bog'liqlikning moddiy va ma'naviy asoslarini tashkil etadi.

To'rtinchidan, XX asrda yapon ilm-fanida shakllangan markaziy-osiyo shunoslik an'anasi, jumladan, Otani ekspeditsiyalari merosi ikki xalq o'rtasidagi intellektual aloqalarning davomiyligini ta'minladi va zamonaviy ilmiy hamkorlikning tarixiy poydevorini yaratdi.

Beshinchidan, ilk madaniy-sivilizatsiyaviy aloqalar tarixi zamonaviy O'zbekiston – Yaponiya strategik sherikligining gumanitar zamini sifatida baholanishi lozim. Yapon tashqi siyosatidagi "Ipak yo'li diplomatiyasi" konsepsiyasi ushbu tarixiy xotiraning amaliy siyosatga aylangan ko'rinishidir.

Oltinchidan, mavzuni yanada chuqur o'rganish uchun arxeologik materiallar, yapon arxivlari va Otani kolleksiyasi hujjatlarini kengroq jalb etish, shuningdek, O'zbekiston va Yaponiya olimlarining qo'shma tadqiqot dasturlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yo'nalishdagi izlanishlar natijalari oliy ta'lim tizimida yaponshunoslik va markaziy-osiyo shunoslik fanlarini o'qitishda, shuningdek, ikki mamlakat madaniy diplomatiyasi amaliyotida foydalanilishi mumkin.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на первом саммите «Центральная Азия + Япония». 20.12.2025 // Официальный сайт Президента Республики Узбекистан. – URL: <https://president.uz/ru/lists/view/8812>

2. O‘zbekiston diplomatiyasi tarixi (qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha). 6-jild / Mas’ul muharrir A.X. Kamilov. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – B. 25-28.
3. Системный подход в исследовании международных отношений / Под ред. А.Д.Богатунова. – М., 2003. – С. 18-24.
4. Нихон сёки (Анналы Японии): в 2 т. / Пер. и коммент. А.М. Ермаковой, А.Н. Мещерякова. – СПб.: Гиперион, 1997.
5. Hansen V. The Silk Road: A New History. – Oxford: Oxford University Press, 2012. – 304 p.
6. O‘zbekiston diplomatiyasi tarixi (qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha). 6-jild / Mas’ul muharrir A.X. Kamilov. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – B. 25-28.
7. Marshak B.I. Legends, Tales, and Fables in the Art of Sogdiana. – New York: Bibliotheca Persica Press, 2002; Ртвеладзе Э.В. Кушанское царство. Династии, государство, народ. – СПб.: Евразия, 2024. – 256 с.
8. Sims-Williams N. Sogdian and Other Iranian Inscriptions of the Upper Indus. – London: School of Oriental and African Studies, 1989.
9. Marshak B.I. Legends, Tales, and Fables in the Art of Sogdiana. – New York: Bibliotheca Persica Press, 2002; Ртвеладзе Э.В. Кушанское царство. Династии, государство, народ. – СПб.: Евразия, 2024. – 256 с.
10. Liu X. The Silk Road in World History. – New York: Oxford University Press, 2010. – 168 p.
11. Sims-Williams N. Sogdian and Other Iranian Inscriptions of the Upper Indus. – London: School of Oriental and African Studies, 1989.
12. Marshak B.I. Legends, Tales, and Fables in the Art of Sogdiana. – New York: Bibliotheca Persica Press, 2002. – (повтор № 9)
13. Liu X. The Silk Road in World History. – New York: Oxford University Press, 2010. – 168 p.
14. Whitfield S. Life Along the Silk Road. 2nd ed. – Berkeley: University of California Press, 2015. – 264 p.
15. Whitfield S. Life Along the Silk Road. 2nd ed. – Berkeley: University of California Press, 2015. – 264 p.
16. Hansen V. The Silk Road: A New History. – Oxford: Oxford University Press, 2012. – 304 p.
17. Нихон сёки (Анналы Японии): в 2 т. / Пер. и коммент. А.М. Ермаковой, А.Н. Мещерякова. – СПб.: Гиперион, 1997.
18. Foltz R. Religions of the Silk Road: Premodern Patterns of Globalization. 2nd ed. – New York: Palgrave Macmillan, 2010; Sen T. Buddhism, Diplomacy, and Trade: The Realignment of Sino-Indian Relations, 600–1400. – Honolulu: University of Hawai‘i Press, 2003.
19. Rhie M.M. Early Buddhist Art of China and Central Asia. Vols. 1–3. – Leiden: Brill, 1999-2010.
20. Нихон сёки (Анналы Японии): в 2 т. / Пер. и коммент. А.М. Ермаковой, А.Н. Мещерякова. – СПб.: Гиперион, 1997. – (повтор № 17)
21. Como M. Shōtoku: Ethnicity, Ritual, and Violence in the Formation of Japanese Buddhism. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 248 p.
22. Sims-Williams N. Sogdian and Other Iranian Inscriptions of the Upper Indus. – London: School of Oriental and African Studies, 1989.
23. Liu X. The Silk Road in World History. – New York: Oxford University Press, 2010. – 168 p.
24. Hansen V. The Silk Road: A New History. – Oxford: Oxford University Press, 2012. – 304 p. – (повтор № 16)
25. Azizov S.Sh. Yaponiyaning sivilizatsiyaviy rivojlanishini o‘rganishga doir // International Scientific Journal of Biruni. – 2025. – Vol. 4, Issue 1. – B. 512–518. – (E)ISSN 2181-2993.

26. Rhie M.M. Early Buddhist Art of China and Central Asia. Vols. 1-3. – Leiden: Brill, 1999-2010.
27. Комиссаров С.А., Семенова М.В. «Коллекция Отани»: наследие японских экспедиций в Восточный Туркестан (Синьцзян) // Вестник НГУ. Серия: История, филология. – 2011. – Т. 10, вып. 4. – С. 19-26.
28. Комиссаров С.А., Семенова М.В. «Коллекция Отани»: наследие японских экспедиций в Восточный Туркестан (Синьцзян) // Вестник НГУ. Серия: История, филология. – 2011. – Т. 10, вып. 4. – С. 19-26.
29. Комацу Х. Центральноазиатские исследования в Японии // Восток. Афро-азиатские общества: история и современность. – 2003. – № 4. – С. 152-163.
30. Katō Kyūzō. Chūō Ajia no bukkyō to iseki (Markaziy Osiyo buddaviyligi va arxeologik yodgorliklari). – Tokyo: Chuo Koronsha, 1993.
31. Комацу Х. Центральноазиатские исследования в Японии // Восток. Афро-азиатские общества: история и современность. – 2003. – № 4. – С. 152-163.
32. Азизов С.Ш. Yaponiyaning sivilizatsiyaviy rivojlanishini o'rganishga doir // International Scientific Journal of Biruni. – 2025. – Vol. 4, Issue 1. – B. 512-518. – (E)ISSN 2181-2993.
33. Katō Kyūzō. Chūō Ajia no bukkyō to iseki (Markaziy Osiyo buddaviyligi va arxeologik yodgorliklari). – Tokyo: Chuo Koronsha, 1993.
34. O'zbekiston diplomatiyasi tarixi (qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha). 6-jild / Mas'ul muharrir A.X. Kamilov. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019. – B. 25-28.
35. Aso T. Central Asia as a Corridor of Peace and Stability // Ministry of Foreign Affairs of Japan. – 1 June 2006. – URL: <https://www.mofa.go.jp/region/europe/speech0606.html>

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000